

O'RTA OSIYO DAVLATLARINING XVIII-XIX ASR BIRINCHI YARMIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI VA KARTOGRAFIK TADQIQOTLAR

Xatamov Avazbek Sobir o'g'li

To'rayev O'Imasbek Safarali o'g'li

Tursunmurodov Otobek Shuxrat o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining talabalarini

Annotatsiya: XIX asrga kelib. Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kv. km.ni tashkil etdi. Uning chegaraiari janubda Amudaryoning soT qirg'log'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib, qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog' Taridan, g'larbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'Tgan hududni egallab turardi. Buxoro va Samarcand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, geografik chegara, tarixiy geografiya, Shimoliy Baqtriya, Katta Xorazm, Marg'iyona, So'g'diyona.

Hozirgi kunda aynan O'rta Osiyo hududida joylashgan tarixiy viloyatlar, davlatlar, arxeologik komplekslar va arxeologik madaniy yodgorliklarning joylashgan o'rnini, chegaralarini o'rganilish masalasi dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. O'rta Osiyo svilizatsiya o'chog'i hisoblangan Baqtriya hududida davlatlarning paydo bo'la boshlashi, uning hududiy chegaralari, So'g'diyonaning tarixiy geografik chegaralarini aniqlash, Katta Xorazm masalalari va Xorazm svilizatsiyasining ilk kurtaklari qachondan paydo bo'lganligi hozirgi kunda aniq ravshan dalillar asnosida hech bir olim, arxeolog aniq fikrlarni aytma olmayapti. Arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, Baqtriya, Marg'iyona va So'g'diyonaning qadimgi tarixiy geografiyası, madaniyati o'zining xilma-xilligi, har bir davr va ularning tarixiy ketma-ketlikda intensive rivoj topgan bosqichlari bilan insoniyat tarixida katta madaniy meros qoldirgan. Biroq bu juda boy va rang-barang madaniy meros hozirgacha umumlashtirilmagan va aniq bir ilmiy tizimga solib, maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq qilinmagan. XX asrning 50-yillaridan esa M.M.Dyakonov tomonidan «Shimoliy Baqtriya» tushunchasini ilmiy muomalaga kiritildi[1]. Bu hududga shimoldan Hisor tog' tizmalari, g'arbdan Ko'hitang tizmasi, janubdan Amudaryo, sharqdan Pomir tizmalarigacha bo'lgan keng hududlarni qamrab olgan. Bu atamadan kelib chiqib, shimoli-sharqiylar va Shimoli-G'arbiy Baqtriya atamalari ham paydo bo'ldi. ShimoliG'arbiy Baqtriya atamasining kelib chikishi Shimoliy Baqtriya hududiy chegaralarining ancha kengayishiga va uning tarkibiga Turkmanistonning Kelifdan Kerkigacha bo'lgan janubi-sharqiylar hududi va hatto Chorjuyning ham kiritilishiga sabab bo'ldi[2]. B.Ya.Staviskiy Baqtriyaning shimoliy chegaralari masalasining yechimiga arxeologiya va epigrafikaga oid yangi ma'lumotlarni keng jalb qildi hamda kushonlar davrida janubga va shimolga Amudaryodan boshlab Hisor tizmalariga qadar bo'lgan hudud etnik va madaniy

munosabatlarda yagona tarixiy-madaniy viloyatni o'zida aks ettirganligini ko'rsatib berdi. Amerikalik olim R.Frayning fikriga ko'ra, Baqtriya keng qamrovli viloyatning madaniy markazi bo'lib, uni shimoldan, sharqdan va janubdan tog'lar o'rabi to'rgan, uning erlarini sug'oruvchi Amudaryo uni ikki qismga: janubiy, ya'ni Afg'on Turkistoniga va Shimoliy, o'ng qirg'oq, ya'ni Tojikistonga ajratib turgan. Bir qator olimlar bu fikrga qo'shilmaydilar. Ular antik davr manbalariga tayanib yuqorida ko'rsatilgan viloyat So'g'diyonaga qarashli bo'lgan va Baqtrianing shimoliy chegarasi Amudaryo-Oks orqali o'tgan deb hisoblaydilar[3]. Har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qo'yiladigan hokimlar beklar idora qilgan. Hokim quzurida yuzlab mahalliy ma murlar xizmat qilgan. Manbalar, amiriikda mahalliy ma'muriar shtati 30 ming kishini tashkii etganligidan guvohiik beradi. Hokim va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi, ular mahalliy aholidan olinadigan turli-tuman soliq va to'lovlari hisobiga tirikchilik qilishganlar. Xiva xonligi janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko'qna Urganch, Xazorasp, Qo'ng'irot, Xo'jayli, Kudar (hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'Mgan Xiva shahri 1598-yildan boshlab xoniikning poytaxti bo'lgan. Shahar ikki qism -Ichan qal'a (shahaming ichki qismi) va Dishon qal'a (shaharning tashqi qismi)dan iborat edi. Ichan qafada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan. 1842-yilda Dishon qal'a qurilib, devor bilan o'rabi olingan. Dishon qal'ada hunannandlar, savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar istiqomat qilganlar. Ma'muriy-hududiy jihatdan Xiva xonligi Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna-Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, G'azovot, Kat, Shohabbos, Shovot, Toshhovuz, Ambor-manoq, Urganch, Xo'jayli, Shumanay, Qo'ng'irot kabi beklik va viloyatlarga bo'lingan. Xonlik tarkibida Beshariq va Qiyotqo'ng'irot noibliklari ham bo'Mgan. Bekliklami xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan. Bek va noiblar quzurida ularga xizmat qiluvchi ko'pdan-ko'p mansabdorlar bo'lgan. XIX asming birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Qo'qon xonligi bilan Rossiya o'rtasida Mirzacho'l va Muyunqul cho'llari yastanib yotgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li o'lkalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'Tib turgan. Qo'qon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o'laroq, sersuv daryolar, soTnn vodiylar, serhosil yerkirada boy edi. Xonlikning markazi shaharlari Qo'qon, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan Farg'ona vodiysida joylashgan edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, Suzak, Oqmachit kabi yirik shaharlari ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi. Qo'qon xonligi 15 beklik, ya'ni harbiy okrugga bo'Tingan bo'Tib, ularning yarmidan ko'piga xonning o'g'illari yoki yaqin

qarindoshlari hokimlik qilganlar. Hokimlar o‘z hududidagi harbiy kuchlar qo‘mondoni hamda fuqaro boshqaruvining boshlig‘i edi. Ular o‘z tasarrufidagi qo‘sinni o‘zlari moddiy jihatdan ta‘minlaganlar. Hokimlar harbiy yurishlar oldidan xonning birinchi da‘vati bilan o‘z qo‘sinchilari bilan belgilangan joyga etib kelishlari shart edi. Qo‘qon xoni zaruriyat tug‘ilganda oziq-ovqat ortilgan 12 ming aravaga ega bo‘lgan 60 mingtacha sipohni yig‘a olardi. XLX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 million atrofida aholi istiqomat qilar edi. Aholining katta qismi amirlikning sersuv vohalarida yashar, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho‘lari deyarli kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300-350 ming, Qashqadaryo vohasida 500 ming, Surxondaryo vohasida 200 ming, Sharqiy Buxoroda 500 ming aholi yashar edi. Amirlikning yirik shaharlari - Buxoroda 60 ming, Samarcandda 50 mingga yaqin kishi istiqomat qilardi. Aholi etnik jihatdan ko‘pgina qavm-urugTardan iborat bo‘lib, ularning qariyb 57 foizi o‘zbeklar edi. O‘zbeklar bir qancha elatlardan tashkil topgan bo‘lib, ular orasida mang‘t, saroy, qo‘ng‘iroq, jabg‘u, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabiiilari ko‘pchilikni tashkil etardi. Ular asosan, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalaridagi shahar va qishloqlarda istiqomat qilar edilar. Qo‘qon xonligida aholi nisbatan zinch joylashgan bo‘lib, unda taxminan 3 millioncha kishi istiqomat qilgan. Xonlikning poytaxti Qo‘qonda 80 ming, Toshkent shahrida 60 ming aholi yashagan. Qo‘qon xonligi aholisining ko‘pchilik qismi o‘zbeklar, shuningdek, tojiklar, qirg‘izlar, qozoqlar, uyg‘urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Bular bilan yonma-yon yahudiylar, tatarlar, hindlar va boshqa elatlarning vakillari ham istiqomat qilganlar Xiva xonligida aholining ko‘pchilik qismini o‘zbeklar tashkil qilib, ulardan eng kuchli va ko‘p sonlilari qolng‘iroq, nayman, qiyot, uyg‘ur, nukuz, qangMi, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O‘zbek qabilalari, asosan, Amudaryo tarmoq yoygan qismida, kanal bo‘ylarida joylashgan. Aholining anchagina qismini (taxminan to‘rtadan birini) turkmanlar tashkil etgan. Turkmanlar qadimgi o‘g‘izlarning avlodlari bo‘lib, forscha so‘zlashuvchi mahalliy xalqlar va o‘zbeklar bilan qorishib ketgan edi. Qoraqalpoqlar yashaydigan Amudaryoning quyi havzasi va Orol dengizining janubiy qirg‘oqlari ham Xiva xonligi tasarrufida edi. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik qoraqalpoqlarning asosiy mashg‘uloti edi. Buxoro amirligida aholining aksariyat qismi dehqonchilik chorvachilik bilan shug‘ullangan. Sug‘oriladigan yerlarda paxta, bu‘doy, sholi, jo‘xori ekilib, boq va poliz mahsulotlari ham yetishtirilgan. Chorvachilikda qo‘ychilik, qorako‘1 yetishtirish; hunarmandchilikda gilamdo‘zlik, o‘ymakorlik, zardo‘zlik, teginnonchilik, ko‘nchilik, to‘quvchilik, temirchilik, kulolchilik, beshikchilik, sandiqchilik, etikdo‘zlik, moyjuvozlik,sovungarlik keng rivojlangan. Amirlikning iqtisodiy hayotida qoloqlik, turg‘unlik hollari mavjud edi, aholining tunnushi past darajada edi. Yerga egalik shakli ming yillar davomida o‘zgarmay kelmoqda edi. Shuningdek, aholiga solinadigan soliq va jarimalar haddan tashqari ko‘p edi. Aholining sotib olish qobiliyati pastligi hunarmandchilikning rivojlanishiga to‘sinqinlik qilardi. Hunarmandlar ozgina daromadga ham qanoat qilardi, ustaxonalamani kengaytirishga mablag‘ topolmasdi. Qo‘qon xonligida 1803-yilda bunyod etilgan

Xon va Zarbak, 1819-yildagi Yangiariq kanallari vodiyyida sug'orish ishlarining unumini ancha oshirdi. Xiva xonligida Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrida o'tkazilgan soliq islohoti, bojxonaning joriy etilishi, oltin pul chiqarilishi xo'jalik ishlariga o'zining ijobiy ta'siiini ko'rsatdi. O'z vaqtida yig'ib olingen soliqlar xonlik xazinasi, daromadini oshirdi. Xonlikda sun'iy sug'orish borasida oldingi asrlarga qaraganda ko'p ish qilingan. Xonliklarning savdo munosabatlarda hamon ayirboshlash usuli davom etardi. O'rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgan, bu yerda yagona ichki bozor ham tashkil topmagan edi.

XULOSA

XX asrning o'rtalaridan boshlab «Shimoliy Baqtriya» atamasi ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, bu hudud shimoldan Hisor tog' tizimi, g'arbdan Kuhitang tizmasi, janubdan Amudaryo, sharqdan Pomir tog'lari bilan chegaralanuvchi qadimgi tarixiy madaniy viloyatni o'z ichiga oladi. Ushbu masala yuzasidan tadqiqotchilar orasida ko'pgina bahslar bo'lib o'tganligiga qaramasdan, arxeologik ma'lumotlar natijalarini yozma manbalar bilan solishtirish natijasida masalaga ko'pgina aniqliklar kiritildi. Shimoliy Baqtryadan o'tuvchi qadimgi yo'llar va ularning yo'naliishlari (Balxdan Amudaryo kechuvi orqali Temir darvozadan G'uzor yo'naliishi bilan Keshgacha), viloyatlar va qal'alarning joylashuvi (Paretaka, Bubakena, Sizimitr, Gabaza, Branxiylar shahri va boshqalar) masalalari mumkin qadar o'z yechimini topdi deyish mumkin. Ushbu ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, mil.avv. IV asr o'rtalarida Amudaryo yuqori oqimining o'ng qirg'og'idagi yerlar - Surxon vohasi va qisman Janubiy Tojikiston yerlari Baqtryaning tarkibiga kirgan. Ammo, o'sha davrda bu hududlar qanday umumiyl nom bilan nomlanganligi hozircha ma'lum emas. Buning sababi esa bu davrga doir yozma manbalar yoqligida

ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. Aminov O. XVI - XX asrlarda O'rta Osiyoning Rossiya bilan tarixiy va iqtisodiy aloqalari. - T., 1958.
 2. Ziyayev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII-XX asr boshlari). - T.: Sharq, 1998.
 3. Yo'ldoshyev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. — T., 1959.
 4. KopoiceneecKuu H.JI. K wcTOpwn pa3BHTW5i KapTorpa^wn h reorpa^miecKHX npejiCTaBJieHHH o TeppHTopHH Cpe^new Ashh h YsbeKHCTaHa b XVIII BeKe // AH CCCP. 1949, I.
 5. JlymiH E.B. PlcTopnfl ysbeKHCTaHa b HCTOWHHKax. HsbccthnyTeinecTBeH-HHKOB, reorpa
- Usmanova S. An analysis of "assimilation" of landscape terms //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 14. – C. 32-36.
- Usmanova S. An analysis of "assimilation" of landscape terms //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 14. – C. 32-36.